

1991-1999-YILLARDA SURXONDARYO VILOYATIGA CHET EL INVESTITSİYALARINING JALB ETILISHI VA UNING NATIJALARI

Umarov Ikromjon Ibragimovich

Termiz Davlat universiteti katta o'qituvchisi,

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: lochin-umarov@mail.ru

Yusupov Dilshodbek Baxtiyor o'g'li

Termiz davlat universiteti Tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti

<https://orcid.org/0009-0007-2069-1233>

UDK 94 (575.1)

Annotatsiya: Bugungi kunda butun dunyoda bo'lgani singari, O'zbekistonda ham chet el investitsiyalarini jalb etish uchun ko'plab amaliy ishlar qilinmoqda. Buning uchun zarur bo'lgan huquqiy hujjatlar qabul qilinib, investorlarga katta sharoitlar yaratilmoqda. Shu bilan birga, chet el investitsiyalari kiritilishida bir qator muammo va qiyinchiliklar yuzaga kelmoqda. Muammolarni hal etish uchun Respublika hukumati tomonidan qator choralar ko'rilmogda. Ushbu maqolada XX asrning 90-yillarida Surxondaryo viloyatiga chet el sarmoyalarining kiritilishi va uning natijalari yoritiladi.

Kalit so'zlar: Surxondaryo, investitsiyalar, turizm, Surxon-Ajanta, erkin iqtisodiy zonalar, eksport, import.

Аннотация: Сегодня в Узбекистане, как и во всем мире, проводится большая практическая работа по привлечению иностранных инвестиций. Для этого приняты необходимые нормативно-правовые документы и созданы прекрасные условия для инвесторов. Вместе с тем, в процессе привлечения иностранных инвестиций возникает ряд проблем и трудностей. Правительство республики принимает ряд мер для их решения. В данной статье будет рассмотрено привлечение иностранных инвестиций в Сурхандарьинскую область в 1990-х годах и его результаты.

Ключевые слова: Сурхандарья, инвестиции, туризм, Сурхан-Аджанта, свободные экономические зоны, экспорт, импорт.

Annotation: Today, as in the whole world, a lot of practical work is being done in

Uzbekistan to attract foreign investments. The necessary legal documents have been adopted for this, and great conditions are being created for investors. At the same time, a number of problems and difficulties arise in the process of attracting foreign investments. The government of the Republic is taking a number of measures to solve the problems. This article will cover the introduction of foreign investments into the Surkhandarya region in the 1990s and its results.

Keywords: Surkhandarya, investments, tourism, Surkhan-Ajanta, free economic zones, export, import.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION).

O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin xalq xo'jaligining turli sohalarida bir qator qiyinchiliklar yuzaga keldi. Chunki, Sovet davlati qulagach, ittifoqdosh respublikalar bilan iqtisodiy aloqalar uzilib qolgan, oqibatda O'zbekistondagi sanoat korxonalari faoliyati sekinlashgan, bu esa, ichki bozorni xalq xo'jaligi mollari bilan ta'minlashda muammolarni hosil qilgan edi. Vujudga kelgan muammolarni hal qilish uchun chet el investitsiyalarini jalb etish zarur edi. Chet el investitsiyalari va investorlar huquqlarini himoyalash vazifasi ham muhim ahamiyat kasb etar edi. Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish, eksport imkoniyatini kengaytirish kuchli investitsiya siyosatini o'tkazish bilangina ro'yobga chiqarish mumkin edi.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION).

Chet el investitsiyalarini jalb etish murakkab jarayon hisoblanadi. Negaki, bunda eng avvalo, investorlar ishonchi asosiy omil hisoblanadi. Investorlar sarmoya

kiritishdan oldin hududning siyosiy, investitsion salohiyatlarini o'rganib chiqadi. Ularning kiritayotgan sarmoyalari va sarmoyadorlar huquqlarining ta'minlanishi juda muhim jihat ekanligini unutmash lozim. Kuchli investitsion siyosatni amalga oshirish birdaniga bo'lib qoladigan jarayon emasligi bois, bu borada dunyo tajribasini o'rganish, tahlil qilish va bizga mos keladigan modellarni tanlash lozim edi. Jumladan, Xitoy, Janubiy Koreya, Germaniya, Turkiya va boshqa bir qancha davlatlarning tajribasi o'rganildi[1]. Buning natijasida O'zbekistonda investitsiya faoliyatini davlat tomonidan tartibga solinishining quyidagi yo'nalishlari ishlab chiqildi:

1) Investitsiya faoliyatining qonunchilik negizini takomillashtirish.

2) Soliq to'lovchilar va soliq solish obyektlarini, soliq stavkalari va ularga doir imtiyozlarni tabaqalashtiruvchi soliq tizimini qo'llash.

3) Normalar, qoidalar, standartlarni belgilash.

4) Monopoliyaga qarshi choralari qo'llash.

5) Kredit siyosati va narx siyosatini o'tkazishga va boshqa tabiiy resurslarga egalik qilish va ulardan foydalanish shartlarini belgilash.

6) Investitsiya loyihalarini ekspertiza qilish mexanizmlarini belgilash [2].

Yuqorida keltirilgan 6 ta yo'nalish investitsiya faoliyatini siyosiy yo'nalishlarini o'zida aks ettirgan. Xorijiy sarmoyalar va ularning qonuniy asosini yaratish ishlari hali mustaqillikka erishmasdan oldin kirishilgan edi. Bu borada qilingan ishlar natijasida 1991-yil 14-iyulda "O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi [3]. Ushbu qonun chet ellik investorlar va ularning mol-mulki, faoliyati va huquqlari kafolatiga bag'ishlangan. Bundan tashqari, O'zbekistonda tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga soluvchi qonunlarni yaratish, chet el investitsiyalari, import va eksport uchun soliqlar, valyuta ishlarini tartibga solish, garov to'g'risidagi qonunlar, bojxona kodeksi va boshqa huquqiy hujjatlarning loyihalari tayyorlandi [4].

Mustaqillikka erishganimizdan keyin yangi sharoitlarda chet el investorlarini jalb etish

uchun amaliy harakatlar boshlandi. Xususan, 1992-yil 2-iyulda "O'zbekiston Respublikasida chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish haqida"gi qonun e'lon qilindi [5]. E'tiborni tortadigan jihati shundaki, bu qonun 1991-yilda imzolanganda 40 moddadan iborat bo'lgandi. Yangi o'zgartirish kiritilishi natijasida 39 moddaga aylantirildi. Qolaversa ba'zi qo'shimchalar kiritildi.

Istiqlolning ilk yillarida Surxondaryo viloyati bilan Koreya Respublikasi o'rtasidagi hamkorlik kuchaydi. O'zaro sherikchilik aloqalari mintaqada ishlab chiqarishni rivojlantirish, bandlik masalasini hal etish, sanoat va qurilish zarur bo'lgan materiallar bilan ta'minlash va keng xalq iste'mol mollarini yetkazib berishda muhim ahamiyat kasb etar edi. Shuni hisobga olib "BO SUNG TRADING CO., LTD" firmasi prezidenti Kim Xin Din 1992 yil 23 dekabrda Surxondaryo viloyat hokimi hamda "Surxanplastik limited" firmasining prezidenti G.P.Yefimov bilan qo'shma korxona direktori V.V. Valyanikovni 1993-yilning yanvar oyida amaliy tashrif bilan Koreya Respublikasiga kelish va koreyalik ishbilarmonlar bilan muzokara olib borish taklifi bo'yicha xat yubordi [6].

Ushbu taklif yuzasidan termizlik ishbilarmonlar Koreya Respublikasida bo'ldilar va yangi texnologiyalarni jalb qilish bo'yicha qator kelishuvlarga erishdilar. Buning natijasida viloyatga zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish va yangi ish o'rinlarini shakllantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratildi.

1994-yil 25-mayda "Chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risida"gi qonun qabul qilindi [7]. E'tiborni tortadigan jihat shundaki mazkur qonunda biroz kamchiliklar bor edi. Masalan, chet el investitsiyalari va chet ellik investorlar faoliyatining kafolatlari to'g'risidagi qonunga yuzlanadigan bo'lsak, bunda qonuning 11-moddasida investorlarning huquqlari keng tushuntirilgan bo'lsada, aniq jihatlar keltirilmagan. Jumladan chet el investoriga zarar yetkazilsa sud orqali undirish haqida aytilishiga qaramay, uning qay tartibda amalga oshirilishi to'liq yoritilib berilmagan. Qonunda xalqaro arbitraj haqida ta'kidlanmagan edi. Shu

bois ushbu qonun 1998-yil 20-may kuni o'z kuchini yo'qotdi va bekor qilindi.

1994-yil 4-iyulda O'zbekiston va Isroil hukumati o'rtasida "investitsiyalarni rag'batlantirish va himoya qilish" to'g'risida bitim imzolandi. Bu bitimning kuchga kirishi ancha keyinroq, ya'ni 1997-yil 18-fevralda amalga oshirildi. Mazkur bitim 14 moddani o'z ichiga qamrab olib, unda har ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalari, ularning amalga oshirilishi, qonuni, rag'batlantirish, himoyalash haqida qonunan belgilab qo'yilgan.

Albatta, O'zbekiston janubiy mintaqasiga chet el investitsiyalarini kiritishda muayyan sabablar ham bor edi. Negaki, 1992-1995 yillardagi inqiroz iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatgan, bu esa iqtisodiyotni yuksaltirish, byudjetni mablag' bilan ta'minlash, bandlik masalasini ijobiy hal etishda jiddiy qiyinchiliklar tug'dirar edi. Jumladan, Surxondaryo viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini saqlab turish uchun barcha imkoniyatlar mavjud bo'lishiga qaramasdan, ayrim shahar, tuman hokimlari hamda korxona rahbarlarining e'tiborsizligi oqibatida 1995-yilning 10 oyida 3,4 foiz kamayishga yo'l qo'yildi. Viloyatning 57 ta sanoat korxonasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 211,3 mln so'mlik mahsulot kam ishlab chiqarildi. Denov shahri, Bandixon, Sho'rchi tumanlarida iste'mol mollari ishlab chiqarish o'tgan yilning shu davriga nisbatan ancha past bo'ldi. Shu davrda Angor tumanida aholi jon boshiga atigi 11 so'mlik, Oltinsoy tumanida 9 so'mlik, Sho'rchida 8 so'mlik, Qumqo'rg'onda 7 so'mlik, Sariosiyoda 9 so'mlik, Jarqo'rg'onda 4 so'mlik maishiy xizmat ko'rsatilganligi achinarli hol edi. Hatto viloyat markazi bo'lgan Termiz shahrida ham aholiga pulli xizmat ko'rsatish hajmi 50 foizga, maishiy xizmat ko'rsatish 63 foizga kamayib ketgan edi [8].

Byudjet mablag'larining yetarli emasligi ijtimoiy sohaning oqsashiga sabab bo'ldi. Masalan, 1995-yilning o'zida 489 ta maktabda dars 2 smenada olib borilgan, 12 ta maktabda oshxona, bufet ishlamas, Boysun tumanida 3 ta, Muzrabotda 1 ta maktab avariya holatida edi. Sog'liqni saqlash ishida ham shunga o'xshash manzarani uchratish mumkin edi. Boysun tumanida 60 foiz, Qiziriqda 50 foiz,

Muzrabotda 25 foiz davolash profilaktik muassasalariga ichimlik suvi tashib keltirilardi edi. Ayrim tumanlarda sog'liqni saqlash muassasalari telefondan umuman uzib tashlangan. Masalan 1992-yilda viloyatdagi 746 ta feldsherlik-doyalik punktlarining 586 tasida, 134 ta qishloq vrachlik ambulatoriyasining 96 tasida, 47 ta qishloq uchastka kasalxonasining 34 tasida telefon aloqasi bo'lgan bo'lsa, 1995-yil 1 noyabr holatiga asosan feldsherlik-doyalik punktlarining atigi 157 tasida, vrachlik ambulatoriyalarining 41 tasida, qishloq kasalxonalarning esa 13 tasida telefon bor edi, xolos [9].

Ijtimoiy-madaniy va ta'lim tizimidagi muammolarni hal etish uchun sanoat ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish zarur edi. Shu sabab chet el investorlarini jalb etishga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekistonda chet el investitsiyalarini jalb etish maqsadida qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Ulardan, masalan: 1996-yil 25-apreldagi 202-I-sonli "Erkin iqtisodiy zonalar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni [10], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 31-maydagi PF-1467-son "Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarni tashkil etishni va ularning faoliyatini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" [11], 1996-yil 30-noyabrdagi PF-1652-son "Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan qo'shimcha rag'batlantirish omillari va imtiyozlari to'g'risida"gi [12] Farmonlari chet el sarmoyalarini jalb etishdagi ishlarning naqadar jadal suratlarda olib borilganligini ko'rsatib beradi.

Bir yilning o'zida 2 ta Prezident farmoni va 1 ta O'zbekiston Respublikasi qonuni ishlab chiqilishi chet el sarmoyalari sohasidagi siyosatning naqadar jadal suratlarda olib borilganligini ko'rsatib beradi. Bularning barchasi O'zbekiston SSSRdan ajralgandan keyin xalqaro miqyosga chiqishdagi yirik qadam bo'lgan. Shunga qaramasdan erkin iqtisodiy zonalar to'g'risidagi qonunda (EIZ)lar faoliyatining ekologik xavfsizlik va ijtimoiy mas'uliyati yetarli darajada ko'rsatilmagan edi. Chunki ekologik xavfsizlik bevosita inson va uning salomatligi bilan bog'liqdir. Ekologik

me'yorlarni ishlab chiqarish, qurilish va boshqa iqtisodiy jarayonlarda asosiy omil ekanligi investorlar zimmasiga bir qancha mas'uliyatlarni yuklaydi. Xususan, Ish o'rinlari yaratish va mahalliy aholini ish bilan ta'minlash, mehnat huquqlarini hurmat qilish, infratuzilmani yaxshilash, madaniy qadriyatlarni hurmat qilish va boshqalar shular qatoriga kiradi.

O'zbekistonda chet ellik sayyohlarni jalb etuvchi noyob imkoniyatlar bor. Shuni inobatga inobatga olib, Respublika hukumati tomonidan bir qator choralar ko'rildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 2 iyunda qabul qilgan "Buyuk ipak yo'lini qayta tiklashda O'zbekiston Respublikasining ishtirokini avj oldirish va respublikada xalqaro turizmni rivojlantirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-1162-son Farmoniga asosan Vazirlar Mahkamasi huzurida turizm bo'yicha Idoralararo kengash tuzildi. Kengash faoliyatining asosiy vazifalari qilib quyidagilar belgilandi:

turizm sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish;

jahon andozalari darajasida kichik va o'rta mehmonxonalar, motellar va kempinglar tarmog'i shakllantirilishini muvofiqlashtirish;

sayr-tomoshalar zamonaviy industriyasini, madaniy va sport-sog'lomlashtirish markazlarini barpo etishga ko'maklashish;

noyob turizm imkoniyatlari va tarixiy-madaniy meros keng ko'lamda targ'ib qilinishi va saqlanishini tashkil etish;

sayyohlik tizimida muvofiqlashtirilgan ilmiy-texnikaviy va investitsiya siyosatini o'tkazish;

sayyohlik sohasida kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashni ta'minlash [13].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ushbu Farmoniga asosan Toshkentda "Ipak yo'li turizmi" Xalqaro turistik yarmarkasi o'tkazildi. Surxondaryo viloyat hokimining 1996 yil 5 sentyabrdagi 178-F farmoyishiga asosan Toshkent shahrida 1996 yil 17-19 sentyabr kunlari o'tkaziladigan ikkinchi Xalqaro "Ipak yo'li turizmi" yarmarkasiga tayyorgarlik ko'rish tashkiliy qo'mitasining tarkibi tasdiqlandi [14]. Surxondaryo viloyati ana shunday nufuzli yarmarkaga qatnashish

orqali o'zining turistik potensialini oshirib bordi.

Surxondaryo viloyatida qurilish ishlari avj olib borar ekan, aholini arzon qurilish materiallari bilan ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etib bordi. Shu munosabat bilan 1997 yilning 25 dekabrda Surxondaryo viloyat hokimligi, "O'zqurilishmaterial" AK, "O'zqurilishmaterialtashqisavdo" tashqi savdo firmasi, "Pardoz-Tosh" MChJ vakillari va Italiya davlatidan kelgan ishbilarmonlar Sherobod tumani Zarabog' qishlog'ining xom ashyo manbasida kelajakda uy-joy qurilishida ishlatiladigan toshlar (marmar, granit, gabbro) ga qayta ishlov beriladigan qo'shma korxona ochish bo'yicha bitim tuzdilar [15].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997-yil 26-avgustdagi PF-1831-sonli "Xorijiy sarmoyalari bo'lgan korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotlar eksportini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining Surxondaryo viloyatidagi ijrosi yuzasidan quyidagilar aniqlandi:

Surxondaryo viloyati bo'yicha 1998-yil 1-avgust holatiga ko'ra chet el sarmoyalari ishtirokida 45 ta qo'shma korxona ro'yxatga olingan. Ularda 1749 ishchilar ishlab, ularning ish haqi fondi 63745,1 ming so'mni, har bir ishchining o'rtacha oylik ish haqi 5,3 ming so'mni tashkil qilgan. Korxonalarda 311382,1 ming so'mlik ish bajarilgan. Viloyat bo'yicha tashqi iqtisodiy savdo shu yilning 1 yarmi yakuni bo'yicha eksport 35,8 ming, import 32165,1 ming AQSh dollarini tashkil etgan. Shundan Termiz shahridagi "Surxon-Ajanta" qo'shma korxonasi 833,2 ming, "Safari-Murod" qo'shma korxonasi 14,2 ming, Denov tumanidagi "Qadrdon" qo'shma korxonasi 21,6 ming AQSh dollarlik import, "Orenttrans" qo'shma korxonasi 1,1 ming so'm, "Safari-Murod" qo'shma korxonasi esa 34,7 ming AQSh dollarlik eksport operatsiyalarini amalga oshirganlar.

Faoliyat ko'rsatgan 25 korxonadan 11 tasi ishlab chiqarish, 5 ta korxona xizmat ko'rsatish, 9 ta korxona savdo-sotiq faoliyati bilan shug'ullangan. Ro'yxatga olingan 45 ta qo'shma korxonadan 13 tasi har xil sabablarga ko'ra ishlamagan. 5 tasi mablag'i yo'qligi

sababli tegishli idoralar tomonidan yopib qo'yilgan.

1998-yil 1-iyul holati bo'yicha viloyatdagi mavjud 45 ta xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning Nizom jamg'armasi ochilishida 48767,3 ming AQSh dollari hamda 2782972,9 ming so'm hisobida belgilanib, shundan xorijiy hamkorlar ulushi 30877 ming AQSh dollarini, 1758378,5 ming so'mni tashkil etgan. Lekin xorijiy sarmoyalar ishtirokida ro'yxatga olingan korxonalarning 10 tasida Nizom jamg'armalari shakllanmagan [16]. 1999-yilning 1-yanvar holati bo'yicha Surxondaryo viloyati tashqi savdosida eksport 35,8 ming, import 3575,1 ming AQSh dollarini tashkil qildi [17].

1992-1999 yillarni tahlil qiladigan bo'lsak, shu muddat ichida Surxondaryo viloyat hokimligi tomonidan chet el investitsiyalarini jalb etish uchun juda katta ishlar qilinganligini ko'rishimiz mumkin. Masalan, 1992-yilda Jarqo'rg'on va Sariosiyoda O'zbekiston-Rossiya shisha idishlar ishlab chiqaruvchi qo'shma korxonasi tashkil etildi. 1996-yilda Termiz shahrida "Surxon-Ajanta" farmasevtik

fabrikasi ish boshladi. Biroq, iqtisodiy aloqalarning uzilishi oqibatida Rossiya bilan tuzilgan qo'shma korxona yopildi. "Surxon-Ajanta" qo'shma korxonasi esa, moliyaviy muammolar tufayli to'xtab qoldi. Qolaversa, qo'shni Afg'oniston va Tojikistondagi urushlar Surxondaryoga chet el sarmoyalari kiritilishini qiyinlashtirib qo'ydi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qiladigan bo'lsak, 1992-1999 yillarda Surxondaryo viloyatiga chet el investitsiyalarini kiritish uchun ko'pgina ishlar qilindi. Biroq, mamlakatning qolgan hududlari bilan ichki temir yo'lga bog'lanmaganligi, qo'shni davlatlardagi notinch vaziyat hududga yirik chet el investorlarini jalb etishga to'g'anoq bo'ldi. Bu holat hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xalaqit berdi. Shu sabab bugungi kunda O'zbekiston hukumati qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalar o'rnatib, iqtisodiy sherikchilikni rivojlantirish hamda xorijiy investitsiyalarni jalb etishga harakat qilmoqda.

ADABIYOT VA MANBALAR RO'YXATI

(ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Каримов И.А. Биздан озод ва обод ватан қолсин. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996. –Б. 11.
2. Bekmurodov A.Sh., Karriyeva Y.K., Ne'matov I.U., Nabiyeu D.H., Kattayeva N.T. Xorijiy investitsiyalar-Toshkent: Iqtisodiyot, 2010. –B. 9.
3. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1991 й., 8-сон, 184-модда.
4. Каримов И.А. Ўзбекистон миллий истиқлол, иқтисод, сиёсат, мафкура. –Тошкент: Ўзбекистон, 1996. –Б. 60.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1992 й., 9-сон, 336-модда.
6. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 21-ish, 74-varaq.
7. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1994 й., 5-сон, 128-модда.
8. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 280-ish, 150-151-varaqlar.
9. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 280-ish, 153-158-varaqlar.
10. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 5-6-сон, 58-модда.
11. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1996 й., 5-6-сон, 84-модда.
12. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 1-сон, 2-модда.
13. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1995 й., 6-сон, 140-модда.
14. Surxondaryo viloyat davlat arxivi, 1091-fond, 1-ro'yxat, 386-ish, 7-varaq.